

Sinf: 4-sinf | Fan: Matematika | Yondashuv: STEM asosida

Mashg'ulotning maqsadi

✦ O'quvchilar uchburchakning turlari, tomonlari va burchaklari haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Ular piramida shaklini, uning qismlarini (asos, qirralari, balandlik) o'rganadilar. Shakllarni hayotdagi haqiqiy obyektlar bilan bog'lashga o'rganadilar.

Mashg'ulot davomiyligi

⌚ 45 daqiqa

Interfaol resurslar

Platformadagi interfaol resurslar 4-sinf Matematika darsligidagi **Uchburchak va piramida** mavzusidagi topshiriqlar asosida tayyorlangan.

Muhim va asosiy nazariy qism

▲ Uchburchak – uchta tomon va uchta burchakka ega yassi geometrik shakl.
– Teng tomonli, teng yonli, turli tomonli uchburchaklar mavjud.

🏠 Piramida – pastki qismi (asos) ko'pburchak bo'lgan va qirraga tutashgan uch o'lchamli shakl.

– To'g'ri piramida: asos uchburchak yoki to'rtburchak bo'lib, barcha yon tomonlari uchburchak.

– Qismlari: asos, qirra, balandlik, yon sirt

✦ Hayotiy misollar: tog'lar, Misr ehromlari, soyabonlar, chodirlar

🔧 Amaliy mashg'ulot: "Qog'ozdan piramida yasaymiz"

🎯 **Mashg'ulot maqsadi:** O'quvchilar uchburchaklar asosida piramida yasash, uning qismlarini ajratish va o'lchash orqali geometriyani amaliy o'rganadilar.

📌 Mashg'ulot bosqichlari:

1. Yoyilma chizish (Texnologiya integratsiyasi):

- 1 dona kvadrat yoki uchburchak asos
- 3 yoki 4 ta teng yon uchburchak yon sirt sifatida
- Qog'ozni chizib, qirqib, buklab piramida yasash

2. Qismlarni belgilang:

- Har bir uchburchakning tomonlarini o'lchab, nomlash
- Qirra, balandlik, asos tomonlarini ko'rsatish

3. Informatika integratsiyasi:

- Paintda uchburchak va piramida chizish

STEM fanlar bilan integratsiyasi

Matematika

- Uchburchak turlari, burchaklar, tomonlar
- Piramidaning yuzasi, balandligi, tuzilishi

Texnologiya

- Qog'ozdan piramida modellashtirish
- Konstruksiya yasash, nomlash, aniqlash

Informatika

- Grafik muharrirda shakllar yaratish

Qiziqarli fakt

 Misrdagi Buyuk piramida 2 milliondan ortiq tosh blokdan iborat bo'lib, har bir blok 2,5 tonnagacha og'irlikda. Bu ehromlar 3 800 yildan beri turibdi! Ular matematika, muhandislik va texnologiyaning ilk namunasi hisoblanadi.